



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI INSHO YOZISHGA O'RGATISH

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti Boshlang'ich ta'lif fakulteti 3v-guruh talabasi Usenbaeva Gozzal

Annotatsiya: Ushbu maqolada insho yozish yo'llari va boshlang'ich sinf o'quvchilarini insho yozishga o'rgatish bo'yicha aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, o'quvchi, o'qituvchi, insho, darslar.

Insho — bu o'quvchining ma'lum bir mavzuni mustaqil ravishda yoritadigan yozma ish turidir. Pedagogikada insholar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, fikrlash va yozma ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Insholar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. **O'quvchining his-hayajon tuyg'usini o'stirish:** Insho yozish orqali o'quvchi o'z his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadi.
2. **Aqlini rivojlantirish:** Mavzuni tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmasini oshiradi.
3. **Mustaqil fikrlashga o'rgatish:** O'quvchi o'z fikrlarini erkin va mantiqiy ifodalashni o'rganadi.
4. **Voqealik va hodisalarni baholash ko'nikmasini shakllantirish:** Insho orqali o'quvchi turli voqealar va hodisalarni tahlil qilishni o'rganadi.

Insho yozish jarayoni odatda quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Mavzuni tanlash yoki berilgan mavzu asosida fikr yuritish:** O'quvchi mavzuni tushunib, unga oid fikrlar ishlab chiqadi.



2. **Reja tuzish:** Inshoning tuzilishini belgilash uchun reja ishlab chiqiladi.

3. **Matnni yozish:** Reja asosida matn shakllantiriladi, unda kirish, asosiy qism va xulosa bo'lishi kerak.

4. **Matnni tahrirlash va to'g'irlash:** Yozilgan matn imlo, uslub va mantiqiy xatolarga qarab ko'rib chiqiladi va tuzatiladi.

Insholar o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish, fikrlarini aniq va mantiqiy ifodalash, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini oshirishda muhim vositadir.

Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot yoki oddiy hikoyadan boshlanib, sinflar yuqorilab borgani sari o'quvchini o'z fikrini ifodalashga o'rgatadigan, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiladigan, aqlini peshlab dunyoqarashini kengaytiradigan, tafakkurini tiniqlashtiradigan, nazarini ziyraklashtiradigan ta'limgartarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ish turiga aylanib boradi. Insho bola shaxsini shakllantirishda g'oyat samarali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, voqeа-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishini topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho o'quvchini o'z fikrini tartibga solishga yo'naltiradi.

O'quv yilining ilk kunlaridan o'qituvchilar bolalarga tabiatni kuzatish va shu asosda tabiat taqvimini yuritishni o'rgatadilar. Bu kuzatishlarning o'zi ham quyidagi savollarga javob beruvchi hikoya - og'zaki insho uchun mavzu bo'lishi mumkin: "Bugun ob-havo qanday? Osmon qanday ko'rinishda? Havo bulut bo'lganda osmon qanday ko'rinishda bo'ladi? Nega shunday bo'lishini bilasizmi? Quyoshning qizdirishi nimalarga va nimasi bilan foydali, deb o'ylaysiz? Oy nurining sabzavot va mevalarga foydali jihatni bormi? Agar bor bo'lsa, buni nimalarda ko'rish mumkin? Shamol foydali hodisami yoki zararlimi? Kuchli shamol yaxshimi, yomonmi? Shamol nimasi bilan yaxshi-yu, nimasi bilan yomon,



sizningcha? Yomg'ir yog'yaptimi? Kun issiqmi yoki sovuq? Sizga qanday ob-havo yoqadi? Nima uchun?" va boshqalar. Kelasi safargacha o'quvchilar ob-havoni kuzatib borishga odatlanadilar va kecha qanday edi, bugun qanaqa ekanligini aytib beradilar. O'quvchilar bir-birini to'ldirib, alohida-alohida aytilgan gaplarni o'qituvchi yordamida o'zaro bog'lab, mantiqiy izchillikda hikoya tuzadilar. Bu hikoyalar hech qanday munosabatsiz, aniq vaziyat yoki holat tasviridan iborat bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda insho 4-sinfdan boshlab olina boshlaydi. Lekin, ko'bchilik o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilariga qiyinshilik tug'diradi deb insho yozdirmaydi. Aslida 4-sinfdan boshlab o'quvchilarni insho yozishga o'rgatishimiz kerak. Ular inshoni asosan oson reja bo'yicha yozishadi. Dastlab o'qituvchi o'quvchilarga insho yozishni o'rgatishda ularga mavzuni o'qib berishi va inshoning yozilishi haqida ma'lumot berishi kerak. Rejani o'qituvchi tuzib berishi ham mumkin. Lekin, o'quvchilar insho yozishga o'rganib ketganidan keyin rejani o'quvchilarning o'zлari tuzishi kerak. Insho yozish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatları rivojlanib boradi. Insho o'quvchilarning yozma fikrlashini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Insho yozish dastlabki vaqtarda boshlang'ich sinf o'quvchilarga qiyinchilik olib kelishi mumkin. Shuning uchun ularga dastlab darslikdagi bitta mavzuni olib uni o'qib beramiz va mavzu bo'yicha o'quvchilar o'zlarining tushunganini daftarga yozadi. Bunda o'quvchilar reja tuzmaydi shuchaki mavzudan kelib chiqib o'z fikrini yozadi. Bu orqali o'quvchilar insho yozishga asta o'rganib boradi. Keyinchalik mavzuga oson rejalar tuzib insho yozishni boshlaydi.

Insho ikki xil usulda bo'ladi: yozma va qoralam nusxa

1.Qoralama usulda o'quvchilar o'z fikrlarini ketma-ketlikka solib yozib olishi uchun beriladi. Bu qoralama nusxa tekshirilmaydi va bo'yab, chizib yozilgan so'zlar xato deb hisoblanmaydi.



2. Yozma nusxada o'quvchilar qoralama nusxadagi to'gri joylarini yozishi kerak va bu tekshiriladi va baholanadi.

Insho maqsadiga qarab uch turga bo'linadi:

1. Adabiy insho- bunda o'quvchilar darslikdagi mavzuni yozishadi. O'qituvchi mavzuni o'qib beradi va o'quvchilar mavzu bo'yicha oson reja tuzib yozadi.

2. Adabiy-ijodiy insho- bunda o'qituvchi bitta darslikda o'tgan mavzu beradi va buni o'quvchilar o'zлari yozishi kerak. O'qituvchi mavzuni o'qib bermaydi.

3. Erkin insho- Bunda o'quvchilar erkin mavzu bo'yicha o'zlarining ijodiy fikrlash qobiliyatini ishga solib yozishi kerak. Bu insho turi asosan yuqori sinflarda qo'llaniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun adabiy insho turlari olinadi. Chunki o'quvchi boshqa insholarni yozishga qiynalishi mumkin.

Asar yozish uchun mavzu tanlash bevosita o'qituvchiga bog'liq. Shuning uchun o'qituvchi dastur talabiga moslashib, yil boshidagi rejalashtirish davrida har bir sinfning imkoniyatini hisobga olib mavzu tanlasa bo'ladi. Mavzu tanlashda dasturda quyidagi mavzular belgilanadi:

Tabiatni kuzatish, kattalar turmushi, mакtab turmushi, kichik hikoya, ertaklar bo'yicha, rasmlar bo'yicha o'qigan, ko'rgan, eshitganlariga bog'liq, kino, teatr, bayramlarga va h.k. bog'liq mavzular kiritiladi. Shu bilan birga o'quv darsidagi materiallar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Aslida mavzu tanlashda o'quvchilar uchun tanish, ularni qiziqtiradigan, o'ylantiradigan, ko'rib yurgan narsa va hodisalari, o'qigan, eshitgan narsalariga bog'liq bo'lishini nazarda tutish kerak.

Asar uchun mavzular chiqqandan keyin o'quvchilar bilan o'ylashib, material to'plash ishiga e'tibor berish kerak. Bu bizning tanlagan materialimizga bog'liq bo'lishi shart. Agar bolalarga mo'ljallangan adabiy asarlardan material



to‘plamoqchi bo‘lsak, o‘sha asarni bolalar o‘qib chiqib, yozmoqchi bo‘lgan mavzuga oid materialni o‘sha asarning ichidan izlaymiz. Buning uchun o‘qituvchi yozmoqchi bo‘lgan asarning mavzusiga oid topshiriq beradi. O‘quvchi o‘qituvchi tomonidan berilgan materialni izlaydi. Keyinchalik bu bo‘yicha asar yozish mumkin. Masalan, birinchidan, yozmoqchi bo‘lgan mavzu sayohatga oid bo‘lsa, yoki turmush mavzulariga oid bo‘lsa, "Bizning ko‘cha" mavzusi tanlandi deylik, unda avval topshiriq o‘sha ko‘chani o‘rganish, nazorat qilish topshirig‘i beriladi. Shuningdek, o‘qituvchi ushbu asarga oid ko‘rgazmaga borish, jamoa bo‘lib o‘qish, keyin tahlil qilish va h.k. jarayonida ham material to‘plashi mumkin.

Ikkinchidan, tabiat, mavsumga oid mavzular bo‘yicha asar yozishni rejalahtirgan bo‘lsa, bu holda material to‘plash uchun sayohatga borib, o‘quvchilarga berilgan topshiriqlar bo‘yicha nazoratlar orqali mavzuga materiallar to‘plash mumkin.

Uchinchidan, ilmiy-ommabop asarlar bo‘yicha materiallar to‘plash, uchrashuvlar orqali o‘tkazish mumkin. Vatan urushiga oid mavzu bo‘lsa, vatan urushi qatnashchilari bilan uchrashuv, foydali mehnatga oid bo‘lsa, mehnat ilg‘orlari, mehnat faxriylari bilan uchrashuv orqali o‘qituvchining topshirig‘iga muvofiq material to‘planadi.

To‘rtinchidan, tarixiy mavzular bo‘yicha materiallar to‘plash uchun tarixiy joylarga, muzeylarga borib, mavzuga oid materiallar to‘plash mumkin.

Beshinchidan, syujetli rasm bo‘yicha ishlashga to‘g‘ri kelganda u bo‘yicha sinf o‘quvchilarining kuchi bilan mavzuga oid syujetli rasmlar topib, sinfda ko‘rgazma o‘tkazib, mavzuga oid hikoyalari o‘tkazish orqali o‘quvchilarni asar yozishga tayyorlash mumkin.



Xulosa: Shunday qilib, asar yozishga o‘rgatish-og‘zaki va yozma tarzda teng ravishda o‘rgatib boriladi. Bu o‘quvchining tafakkuri ongingin rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘quvchilarni o‘ylay olishga, o‘ylay olganda ham izchillik bilan o‘ylay olishga o‘rgatish zarur. Asar yozishda o‘quvchilarning savodli bo‘lishi juda muhim. Bunga grammatik, fonetik me’yorlarni o‘rganish orqaligina erishish mumkin. Unday bo‘lsa asar yozishga o‘rgatish ishi - grammatikani o‘rganish bilan chambarchas bog‘liqlikda olib borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Husanboyeva.Q, Hazratqulov.M, Jamoldinova.Sh "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi" kitobi. Toshkent – 2020
- Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
- file:///C:/Users/User/Downloads/8-10.pdf